

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 4, 2019

www.psixologiyabuxdu.uz





Ganjiyev Feruz Furqatovich,
Bux DU psixologiya kafedrası doktoranti,

Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna,
*Bux DU psixologiya kafedrası
o`qituvchisi*



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIK SHAKLLANISHINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya: Maqolada pedagog kadrlarning, jumladan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi, uning asosiy tuzilmasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, umumiy kompetensiya, ta'lim, mahorat.

Abstract. The article discusses the methodology of formation of the professional competence of pedagogical personnel, including preschool teachers, its basic structure.

Key words: competence, common competence, imege, master.

Аннотация: В статье рассматривается методология формирования профессиональной компетенции педагогического персонала, в том числе дошкольных педагогов, его базовая структура.

Ключевые слова: компетенция, общая компетенция, образование, мастер.

Mavzuning dolzarbligi: Yosh avlodni barkamol, komil inson bo'lib yetishishida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va o'qituvchilarning roli benihoyat kattadir. Olimlar ta'kidlaganlaridek, "Birovni o'qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i shart". Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini samarali olib borilishini ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Barcha ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligi muhim o'rin egallaydi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobilyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishidir.

"Kompetent" so'zi lotincha "copeto" so'zidan olingan bo'lib, "erishyapman, munosibman" degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanlikni bildiradi. E.Zeyer, D.Zavodchikovlar "kompetent" atamasiga mutaxassisning o'z faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisi deb qarashadi. Ohayo shtati universiteti olimlari kompetentlik tushunchasini shaxsning ma'lum sohada samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar to'plami deb hisoblaydilar. Ushbu sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri amerikalik olim R.Meyers "kompetentlik – bo'lajak mutaxassisning qandaydir ma'lum baholash me'zonlariga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqishda qo'llab, isbotlay olishidir", degan xulosani beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko'nikma, qobilyat, qarashlari, malakasi va ta'lim berish qobilyatlarining nomoyon bo'lishini belgilab beradigan shaxsiy sifatlari va qadriyatlar yig'indisini tushunamiz.

Mahorat bu – ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, bolalarda dunyoqarash, qobilyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish. Ta'lim jarayonida zamonaviy



axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o'zgarishlariga olib boradi hamda ta'lim olish usullarining o'zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Mahorat"(arabcha "mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish demakdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida mahorat esa, maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiya berish jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u ta'lim jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri tarbiyalanuvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallangan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir. Shunday qilib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda tarbiyachi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi tarbiyalanuvchilarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi. Muammoli ta'limni tashkil etish natijasida tarbiyalanuvchilarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining kompetentlikka, mahoratga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida mezonlar ishlab chiqish zarur. Mavzuga doir manbalarni o'rganish, o'quvchilarning faoliyatlarini kuzatish, tajriba-sinov ishlarining turli bosqichlarida namoyon bo'lgan holatlar, ro'y bergan o'zgarishlarni inobatga olgan holda quyidagi mezonlar bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin: 1. Kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahorat, pedagogik mahorat kabi tayanch tushunchalar mohiyatini anglay olishlari.

2. Kasbiy kompetentlikning muhim sharti davr talabi ekanligini tushunish.
3. Texnologik kompetentlikni shakllantirish ehtiyojiga egalik.
4. O'zida kasbiy kompetentlikni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilish.
5. Kasbiy kompetentlikka egalikni to'la namoyon eta olish.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda qayd etilishicha, muayyan sifat turli shaxslarda turlicha namoyon bo'ladi, yoki turli shaxslar o'zlarining muayyan sifatga egaliklarini turlicha namoyish etadilar. Shundan kelib chiqqan holda bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarida kasbiy kompetentligini shakllantirish turli darajalarda namoyon bo'ladi degan xulosani ilgari surgan holda muayyan sifatlarning namoyon bo'lishi ko'p holatlarda uch ko'rinishda, ya'ni yuqori, o'rta va past darajalarda qayd etiladi.

Tajriba davrida anketa so'rovlari sinaluvchi-tarbiyachilar o'rtasida ikki marta, ya'ni, asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba vaqtida tashkil etildi.

Tarbiyachilarda «Kompetentlik», «Texnologik kompetentlik», «Pedagogik mahorat» kabi tushunchalarning mohiyatini anglaganlik darajasini aniqlash maqsadida ularga quyidagi **anketa so'rovnomalari** tavsiya etildi.

1. "Kompetentlik deganda nimani tushinasiz"?
2. "Kasbiy kompetentlik" mazmunini ayting?
3. Pedagogik mahorat bo'lajak tarbiyachilar faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
4. Zamonaviy tarbiyachining texnologik kompetentligi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilasiz?
6. Siz ta'lim berayotgan muassasada kasbiy kompetentlik, kompetentlikka qaratilgan amaliy harakatlar tashkil etiladimi?

7. Tarbiyachi sifatida o'zingizda qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
8. Siz ta'lim berayotgan muassasada tarbiya mashg'ulotlari jarayonida mavzuga oid ommaviy xborot vositalari xizmatidan samarali foydalaniladimi?
9. Sizningcha ta'lim-tarbiya jarayonida qanday interfaol usullardan foydalangan maqul?


10. Psixologik trening, psixologik maslahat tajriba almashish orqali bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish mumkinmi?

Tajriba avvalida Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 43-sonli va 16-sonli Maktabgacha ta'lim muassasalarining **anketa so'rovnomalari** natijalariga ko'ra “Kasbiy kompetentligi”ni shakllanganlik darajasi:

Jadval № 1.

Tadqiqotning avvalgi aniqlovchi bosqichi					
Tajriba bosqichi vaqti	Ta'lim muassasasi	Tarbiyachilar soni	Daraja (o'zlashtirish)	Guruhda ko'rsatilgan natija	Tadqiqot guruhida % hisobida
2019	43-16 MTM	30	Yuqori (a'lo)	10	33,33333333
			O'rta (yaxshi)	8	26,66666667
			Past (qoniqarli)	12	40

jadval № 2.



Tahlillar asosida chiqarilgan ushbu xulosa bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni qay darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Demak, tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning samarali usullar orqali o'rgatishda avvalo ularning o'zidagi ta'lim asoslarini o'rganishga, bilishga qiziqishni o'stiruvchi omillarni aniqlab, ular orqali ta'sir etishga erishish tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadlarning biri ekanligi yana bir bor asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha quyidagi **amaliy tavsiyalar** taklif etiladi:



- ta'lim tizimida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining tarbiya berish jarayoni va ijodiy tayyorgarlik tuzilmasi mazmunini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilib borish kerak;

- maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari mustaqil ta'lim olishda bo'lajak pedagoglarning o'quv ijodiy tayyorgarlik sifat va samaradorligini oshirish omili sifatida qaralib, uni uzviy va uzluksiz tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish zarur;

- bo'lajak pedagoglarnig pedagogik mahorati, kompetentligini rivojlantirishga bag'ishlangan amaliy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish lozim;

Adabiyotlar:

1. Zunnunova A. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Aloqa” 2006.
2. Shoyaqulova Sh. Interfaol usul. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012.
3. Hodjaboyev A.R. va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2007.
4. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. T: Faylasuflar, 2017.
5. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – “O'qituvchi”, 2010.
6. Giplenreyter Y.B. Vvedenie v psixologiyu. – M, 2008.
7. Abdug'opporova S.D. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'llari. BMT, 2018.

Жумаев Собиржон Саидович,

Директор Ташкентской специализированной школы культуры, профессор.



ВЗАИМОСВЯЗЬ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРЕДПОЧТЕНИЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ СЛУШАТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Аннотация: В работе рассматривается проблема взаимосвязи музыкальных предпочтений слушателей и их индивидуально-психологических свойств, особое внимание уделено взаимосвязи успешности решения субъектом психомоторных задач и характером его музыкальных предпочтений.

Ключевые слова: музыкальные предпочтения, психомоторика, индивидуально-психологические особенности личности, типы слушателей музыки.

Аннотация: Ушбу мақолада мусиқа тингловчилар ва уларнинг индивидуал психологик ҳолатлари, мусиқанинг уларга бўлган таъсирлари ҳақида сўз боради.

Калим сўзлар: психомоторика, индивидуал психологик ҳусусиятлар, шахс, тингловчилар типлари.

Abstract: The problem of correlation between musical preferences of listeners and their individual psychological features is examined in this research work, with particular focus on the correlation between an individual's degree of psychomotor problem solving success and the character of his/her musical preferences.

Key words: musical preferences, psycho-motor reaction, individual psychological features of a person, types of music listeners.

Актуальность: Под музыкальными предпочтением в данной работе понимается выбор человеком музыкального произведения, отвечающего экспектации (ожиданиям) слушателя. Конкретными проявлениями предпочтений служат повторное обращение к музыкальному произведению или жанру, более высокая оценка избранного. Предпочтение сводится к выбору, который, в свою очередь, может как быть связанным с устойчивой конфигурацией



Мундарижа * Содержания * Content

3	Малых С. Б., Тихомирова Т. Н.
	<i>Об организации психологического сопровождения общего образования в российской федерации</i>
	<i>On the organization of psychological support for general education in the Russian Federation</i>
8	Мирзаева С. Р.
	Соғлом турмуш тарзи тушунчаси таҳлили
	Healthy lifestyle analysis
12	Сулейманова Н. К.
	<i>Видеоконтентларнинг чет тил ўқитувчисининг педагогик маҳоратини оширишдаги омил сифатидаги хусусиятлари</i>
	<i>Features of video content as a factor in improving the pedagogical skills of a foreign language teacher</i>
15	Тожибоева Х.М.
	<i>Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда уларда “оммавий маданият”га қарши курашчанлик кўникмаларини шакллантириши</i>
	<i>Formation of skills of youth in the struggle against “mass culture” in increasing their social activity</i>
19	Солиев Ф.С., Турдиматов Ж.М.
	<i>Индивиднинг индивидуал-типик онтогенетик характеристикасини ўрганишда инсон тана тузилишининг конституцион жиҳатларини тадқиқ этиши</i>
	<i>Study of the constitutional aspects of the human body in the study of individual-typical ontogenetic characteristics of the individual</i>
23	Усманова М. Н., Останов Ш. Ш.
	<i>Исследование coping-стратегий подростков</i>
	<i>A study of coping strategies for adolescents</i>
29	Isakova M. T., Yuldasheva N.Sh.
	<i>Taqlid bilishning boshlanishi sifatida</i>
	<i>Imitation as the beginning of knowledge</i>
32	Артикова М.Б.
	<i>Хорижий мамлакатларда ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришининг устувор жиҳатлари</i>
	<i>Priorities in Building Entrepreneurial Skills in Students in Foreign Countries</i>
37	Mirzajonova E.T.
	<i>Tayanch-harakat tizimida nuqsoni (serebral falajligi) bo'lgan bolalarning tafakkur va idrok jarayonlarining rivojlanish muammolari</i>
	<i>Problems of development of cognitive and cognitive processes in children with musculoskeletal system</i>



	defects (cerebral palsy)
41	Қаюмов И.Ф.
	<i>Кичик ёшдаги ўқувчиларда мусиқий қобилиятларни ривожлантиришнинг психологик имкониятлари</i>
	<i>Psychological possibilities of developing musical skills in younger students</i>
46	Инагамова Л.У.
	<i>Бошқарув фаолиятида кейс-стади методидан фойдаланишнинг хориж тажрибаси (россия мисолида)</i>
	<i>Foreign experience of using case study method in management (Russian example)</i>
54	Раҳмонова З.Н.
	<i>Хориж психологиясида "эмоционал интеллект" тушунчасининг шаклланиши</i>
	<i>Formation of the concept of "emotional intelligence" in foreign psychology</i>
58	Абдурсулов Р.А., Бахромов О.Б.
	<i>Ёш спортчиларнинг спорт машғулотларига бўлган қизиқишлари ва мотивлари</i>
	<i>Interests and motivations of young athletes in sports</i>
62	Мухамеджанова С. Д.
	<i>Талабаларда коммуникатив маданиятни ривожлантиришнинг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of development of communicative culture in students</i>
67	Назаров А.М., Рустамов Ш.Ш.
	<i>Анализ психологических данных с помощью программы spss</i>
	<i>Analysis of psychological data using spss</i>
73	Каримов Б.Ш.
	<i>Оилада меҳр туйғусини шакллантиришнинг ижтимоий – психологик механизмлари</i>
	<i>Socio-psychological mechanisms of forming feelings in the family</i>
81	Содиқова Г.О.
	<i>Ўсмирлик даврида мустақил қарор қабул қилишнинг психологик ўрганилганлик ҳолати</i>
	<i>The state of psychological learning of independent decision-making in adolescence</i>
84	Узоқов А.М.
	<i>Олий таълим муассасалари талабаларининг ватанпарварлик даражасини баҳолаш модели</i>
	<i>Model of Patriotic Assessment of Higher Education Students</i>



89	Баширов Б. А.
	<i>Касб танлашнинг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of career choice</i>
94	Каримов Б.Х.
	<i>Инсон онг муаммосининг фалсафий ва психологик жиҳатлари</i>
	<i>Philosophical and psychological aspects of the problem of human consciousness</i>
101	Qodirov M.S.
	<i>Davlat bojxona xizmati xodimlari faoliyatida profayling metodining qo'llanilishi</i>
	<i>Application of profiling method in activity of the State Customs Service</i>
106	Ибрагимов М.Б.
	<i>Некоторые аспекты проблем подготовки высококвалифицированных футболисток в бухарской области</i>
	<i>Some aspects of the problems of training highly qualified football players in the Bukhara region</i>
109	Олимов Л.Я., Махмудова З.М.
	<i>Психодиагностикани компьютерлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари</i>
	<i>Features of computerization of psychodiagnostics</i>
116	Нуралиева Д.М.
	<i>Бола шахсини шаклланишида оилавий муносабатларининг аҳамияти</i>
	<i>The importance of family relationships in the formation of a child's personality</i>
121	Жўраева С.Н., Авлаев О.У.
	<i>Бахтни белгилашда адаптация даражасининг нисбийлиги</i>
	<i>Relativeness of adaptation to happiness</i>
126	Эрназарова Р.Ю.
	<i>Ўқувчиларда юридик тушунчалар шаклланишида асаб тизимининг ўзига хос аҳамияти</i>
	<i>The role of the nervous system in the formation of legal concepts in students</i>



131	Абдиназарова Н.Э.
	<i>Ўқувчиларида ҳуқуқий билимларни шакллантириши психологик тадқиқот муаммоси сифатида</i>
	<i>Formation of legal knowledge in students as a problem of psychological research</i>
135	Ахмедова З.
	<i>Ҳомиладорлик даврида аёллардаги эмоционал ҳолатлар психодиагностикаси ва психокоррекцияси</i>
	<i>Psychodiagnostics and psychocorrection of emotional states in women during pregnancy</i>
139	Бахронова К.Ё.
	<i>Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда хулқ-атвор бузилишлари намён этилишининг ижтимоий психологик хусусиятлари</i>
	<i>Socio-psychological characteristics of behavioral disorders in preschoolers</i>
145	Холматова З. А.
	<i>Интерактивные методы в системе преподавания гуманитарных дисциплин в техническом вузе</i>
	<i>Interactive methods in the system of teaching humanities at a technical university</i>
149	Satvaldiev A. A.
	<i>Tadbirkorlik psixologiyasi shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</i>
	<i>Socio-psychological features of the formation of entrepreneurial psychology</i>
153	Sirojiddinova F. X.
	<i>O'quvchilarni mehnat faoliyati motivatsiyalarini diagnostika qilish</i>
	<i>Diagnostics of student motivation</i>
158	Давронов Н.И.
	<i>Миллий қадриятлар ёрдамида бошлангич синф ўқувчиларда жисмоний сифатларни тарбиялашнинг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of physical education in elementary school students using national values</i>
162	Жўраев Б.
	<i>Ёшларда ҳуқуқий муносабат шаклланишининг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of formation of legal relations in youth</i>
165	Ҳакимова М.Х.



	<i>Мактабгача ва бошлангич таълимда математик тасавурларни шакллантиришида мустақил ижодий тафаккурни ривожлантиришнинг психологик имкониятлари</i>
	<i>Psychological possibilities to develop independent creative thinking in the formation of mathematical concepts in preschool and primary education</i>
172	Равшанов Л.У.
	<i>Ҳарбий хизматчи имижининг психологик жиҳатлари қуролли кучлар имижининг шаклланишидаги туган ўрни</i>
	<i>The psychological aspects of the serviceman's image in the role of the armed forces</i>
178	Юсунова Ш.Б.
	<i>Техник тафаккур психологик муаммо сифатида</i>
	<i>Technical thinking as a psychological problem</i>
182	Ganjiev F. F., Qosimova S.B.
	<i>Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларида касбий компетентлик шаклланишининг назарий-амалий асослари</i>
	<i>Theoretical-practical bases of professional competence formation in preschool teachers</i>
185	Жумаев С.С.
	<i>Взаимосвязь музыкальных предпочтений и психологических особенностей слушателей музыки</i>
	<i>The relationship of musical preferences and psychological characteristics of music listeners</i>
191	Санаева С.Б.
	<i>Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари</i>
	<i>Psychological aspects of development of professional competence of preschool teachers</i>
195	Нарзикулова Ф.Б.
	<i>Профессионально - педагогическая направленность, как условие становления профессионального имиджа педагога</i>
	<i>Professionally - pedagogical orientation, as a condition for the formation of a professional image of a teacher</i>
199	Ядгарова Г.Т.
	<i>Профессиональная ориентация на педагогические профессии как фактор повышения их престижа и осознанного выбора учащимися общеобразовательных школ</i>



	Professional orientation to pedagogical professions as a factor in increasing their prestige and informed choice by students of secondary schools
202	Эшбеков Т.У.
	<i>Олий таълим тараққиётида жамоатчилик билан алоқалар (pr)нинг ўрни</i>
	<i>The role of public relations (pr) in the development of higher education</i>
208	Munirov N.A.
	<i>Turon kurashchilarini musobaqa oldi psixologik tayyorlashning samaradorligi</i>
	<i>Effectiveness of pre-tournament psychological training of Turan wrestlers</i>
213	Исломов Э. Юсупович, Акрамова Г.М.
	<i>Ўзбек миллий курашининг ўқувчишахси сифатларини шаклланишига психологик таъсириларини ўрганиш</i>
	<i>Study of the psychological effects of the Uzbek national wrestling on the formation of the student's personality</i>
217	Курбонова Г. Н.
	<i>Тиббий педагогика таълим йўналиши талабалари касбий тафаккурини ривожлантиришининг педагогик-психологик хусусиятлари</i>
	<i>Pedagogical and psychological features of the development of professional thinking of students in the field of medical pedagogy</i>
222	Жуманиязова И.
	<i>Инсульт касалигига чалинган беморларга психологик ёрдам беришда арт-терапия усули</i>
	<i>Art-therapy method of psychological support to stroke patients</i>
ИЛМИЙ МУШОҶАДА	
227	Рўзиев У. М.
	<i>Ҳиссий зўриқишлар, миядан кетмайдиган фикрлар ёки обсессия</i>
ОАК ХАБАРЛАРИ (ҚУТЛОВ)	
<i>Абдурасулов Рустам Абдураимович</i>	